

**ISLOMIY SUG'URTA (TAKOFUL) TIZIMINING RIVOJLANISH TARIXI VA UNING
KELAJAKDAGI BARQARORLIGI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10600393>

Yunusov Jaloliddin Abduraxim o'g'li

Oriental Universiteti magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada islomiy sug'urta va uning rivojlanish tarixi hozirgi kundagi faoliyati, islomiy sug'urta-takaful bo'yicha olib borilayotga ishlar, O'zbekiston islom moliyasini rivojlanishi yuzasida ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *islomiy sug'urta, takaful, zakot, investitsiya fondlari, islomiy qimmatli qog'ozlar, sukuk, xayriya, lizing.*

Shubhasiz, bugungi kunda islomiy sug'urta (takoful) tizimi jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Hozirda kunda 75 dan ortiq mamlakatlarda 300 ga yaqin islomiy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Ular asosan Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyoda joylashgan (eng yirik markazlari Bahrayn va Malayziyada), so'ngi yillarda Yevropa va AQShda ham ularning soni sezilarli darajada o'sib bormoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, islom moliya tizimining umumiy aktivlari 250 milliard AQSh dollaridan oshadi va yiliga taxminan 15 foizga o'sh kuzatilmoqda¹¹⁶.

Jahon iqtisodiy ta'limotlari tarixida islom iqtisodiy tafakkurining tadrijiy rivojlanishi alohida ahamiyatga molik bo'lgan jarayonlar sirasiga kiradi. Insonlar o'rtasida yuz beradigan iqtisodiy va moliyaviy munosabatlarga shar'iy baho berish va ularni islom huquqi ahkamlari asosida tartibga solish, bevosita, Arabiston yarim orolida Islom dinining paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liqdir. Iqtisodiy va moliyaviy munosabatlarning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan sug'urta va sug'urtalashga oid masalalar tarixi kishilik jamiyatining natural xo'jalikdan tovar ishlab chiqarishga o'tish davriga borib taqaladi¹¹⁷.

Islom olamida sug'urtaning zamonaviy shakliga monand munosabatlar birinchi bor qayerda va qachon qayd etilgani to'g'risida aniq ma'lumotlarni keltirish mushkul vazifa hisoblanadi. Ammo, bir qator tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan mulohazalarga ko'ra, sug'urtalashning ayrim turlari Arabistonda islomgacha bo'lgan davrlardanoq ma'lum bo'lgan. Xususan, johiliyat davrida arablar orasida keng tarqalgan "diya", ya'ni o'ldirilgan jon evaziga to'lanadigan haq, sug'urtaning ilk shakllaridan sanaladi¹¹⁸.

¹¹⁶ <https://www.statista.com/>

¹¹⁷ Pulatova M., Qulmamatov A. "O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish masalalari" Science and Education 3-1 (2022): 1079-1085.

¹¹⁸ Беккин Р.И. Исламское страхование (такафул). Казанский Университет. 2012. С. 9.

“Shariatning asosiy manbalarida sug’urtalashning joiz yoki nojoizligi haqida aniq ko’rsatmalar mavjud emas. Islom xatar va noaniqlikning o’zini man etmaydi, balki oldi-sotdi shartnomasidan foydalangan holda, sotuv va ayirboshlash xatarini boshqa shaxsga o’tkazishni taqiqlaydi¹¹⁹.” Shuningdek, musulmon dunyosida aksariyat olimlar islom dini arkonlaridan biri hisoblangan “zakot” ham sug’urtalashning o’rnini bosa olgani va u beqiyos ijtimoiy ahamiyatga egaligini e’tirof etishadi. Jumladan, “Yusuf Qardoviy ta’kidlashicha, har qanday zakot fondida qarzga botib qolgan nochor musulmon bandani qarzdan xalos qilishga atalgan maxsus bandning borligi islomda sug’urtalashning diqqatga sazovor bo’lgan eng muhim jihatlaridandir.¹²⁰” Shu bilan birga, uning fikricha, islomda “bayt al-mol”da to’planadigan “zakot”, “ushr”, “xums”, “jizya”, “xiroj” kabi barcha soliq turlari, pirovardida, musulmon ummatining o’g’irini yengil qilishga, boshiga tushgan kulfatini bartaraf etishga qaratilgan bo’lib, bir so’z bilan aytganda, “bayt al-mol”davlat ijtimoiy himoya tizimining o’ziga xos samarali shakli sifatida namoyon bo’lgan. VIII-IX asrlarda savdogarlarning karvonlari manzillariga yetunicha qo’riqlash xizmatlari kabi faoliyatlar hozirgi sug’urta munosabatlariga zamin yaratgan.

Xalifalik davrida, shuningdek, qarzdorlikni kafolatlash yoki garov sifatida birorbir qiymatga ega buyumni qo’yish kabi shartnomalar bo’lganki, bularning barchasi bugungi kundagi islomiy sug’urtalashning sarchashmasi ekanidan dalolatdir¹²¹. Islom moliyasi va sug’urta ishi bo’yicha taniqli olim Afzal ar-Rahmon o’zining “Bank ishi va sug’urta” kitobida, aynan, o’rta asrlarda Arabiston yarim orolida faoliyat yuritgan savdogarlar o’zaro yordam fondlari tashkil etishgani va ular ichidan kimdir qaroqchilarga uchrab yoki boshqa ko’ngilsiz voqealar oqibatida zarar ko’rsa, uni fond hisobidan qoplab berilgani haqida yozadi. Shuningdek, ushbu fondan vafot etgan savdogarlar oilalari ham qo’llab-quvvatlangani ta’kidlanadi.

Ma’lumki, Payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ham shu kabi sug’urta tizimida ishtirok etgan.¹²² O’rta asrlarda savdo-sotiqning jadal rivojlanishi va dengizlar osha o’zga yurtlarga yoyilishi natijasida, sug’urtaning dengiz turlari yuzaga keldi. Bundan arab tujjorlari ham benasib qolmadi, albatta. Ma’lumki, XII asrlardan boshlab dengiz sug’urtasi amaliyotga faol kirib kela boshladi.

Tadqiqotchi D.Trimingem fikricha, musulmon olamida sug’urta faoliyati bilan birinchi bo’lib rasman shu g’ullangan jamoa - bu “sufiylik” tariqati a’zolari hisoblanadi. Ushbu jamoaning asoschisi shayx Umar ibn Abdul Farag’al-Kozeruniy bo’lib, ular Hindiston va Xitoyga yo’l oladigan kemalar uchun dengiz sug’urtalarini amaliyotga joriy qilganlar.¹²³

XVIII asr oxirlariga kelib, islom olamida birinchi bor tijoriy sug’urta masalalariga oid fatvo e’lon qilingach, dengiz savdosi bilan shu g’ullanadigan musulmonlar undan nafaqat

¹¹⁹ Байдаулет Е.А. Исламий молия асослари. “Ўзбекистон”, Т.: 2019. -77 б.

¹²⁰ Беккин Р.И. Исламское страхование (такафул). Казанский Университет. 2012. С. 10

¹²¹ Абдуллаев Р.В., Дусанов С.М. Ислам иктисодиётида молиявий муносабатлар. Т.: “Тошкент ислом университети”, 2007. -95 б.

¹²² Afzal ur-Rahman. Banking and Insurance (Economic Doctrines of Islam). London, 1979. Vol. IV. P. 32

¹²³ Тримингэм Дж. Суфийские ордены в исламе. М., 2002. С. 312.

boxabar bo'lganlar, balki unga qat'iy rioya qilganlar. Ammo, diniy ulamolar ichida birinchi bo'lib dengiz sug'urtasiga shariat nuqtai nazardan huquqiy baho bergan taniqli xanafiy mazhabi faqih Ibn Obidin (1784-1836) mazkur amaliyotni nojoiz deb baholagan.

1893-yilda birinchi sug'urta kompaniyasi "Usmonli Sug'urta Kompaniyasi" turk qonunlari asosida ta'sis etiladi. Uning asosiy ta'sischisi "Banque Imperial Ottomane" edi. Usmoniylar Imperiyasi davrida sug'urtachilar faoliyatining tobora kengayib borishi natijasida joriy qonunlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritib borilib, 1905-yilda ular 26 banddan iborat bo'lgan "Sug'urta kompaniyalari haqida Qonun" qabul qilingan. Ammo, shuni ta'kidlash joizki, ushbu qonunlarda islom huquqi talablari o'z aksini topmagan edi.

1903-yilda amerika sug'urta kompaniyasi "American Mutual Life Insurance" mamlakat Bosh muftiysi shayx Muhammad Abduga hayotni sug'urta qilish shariat nuqtayi nazaridan joiz yoki nojoiz ekani haqidagi savol bilan murojaat qilgan va shayx hayotni sug'urta qilish bitimini joiz deb e'lon qilgan.¹²⁴ Takofulning zamonaviy tizimi 1979-yildagina joriy etilgan bo'lsa-da, o'zaro yordam va hamkorlik tushunchasi amalda avvaldan tar g'ib etib kelingan. Bunda sug'urta qildiruvchilar o'zaro umumiy farovonlik uchun birlashadilar va har bir sug'urta qildiruvchi boshqa ishtirokchilar bilan sug'urta hodisasi ro'y berganda, samimiy yordam ko'rsatish niyati ila umumiy jam g'armaga hadya (tabarru) sifatida beminnat asosda ixtiyoriy badalni o'tkazadi¹²⁵.

"Takoful" atamasi arab tilidagi "kafala", ya'ni "kafil bo'lmoq" fe'lidan kelib chiqadi va "o'zaro kafolat" yoki "bir-biri to'g'risida o'zaro qayg'urish" ma'nolarini anglatadi. Mohiyatan, islomiy sug'urtalash – takoful an'anaviy sug'urtalashdan tubdan farq qiladi. Takoful asosida "tabarru" ta'limoti yotadi.

Tabarru so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "hadya", "xayriya" ma'nolarini anglatadi. Demak, bundan shu ma'no kelib chiqadiki, har bir sug'urtalanuvchi takoful shartnomasining boshqa ishtirokchilariga, lozim hollarda, samimiy va be g'araz yordam ko'rsatish niyatiga ega bo'lishlari kerak. An'anaviy sug'urtalashning bosh maqsadi esa, sug'urta faoliyatidan foyda olishdir. Albatta, bundan sug'urtalanuvchi ham manfaatdor, chunki mazkur sug'urta uning faoliyatidagi risk (xatar) darajasini pasaytiradi va uni ehtimoliy bankrotlikdan asraydi.

Bugungi kunga kelib islomiy sug'urta takoful islom banklari faoliyatining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Islom moliya institutlari buxgalteriya hisobi va auditi tashkiloti (AAOIFI) tomonidan 2005-yilda chop etilgan 26-sonli shariat standarti "Islomiy sug'urta (Takoful)" hozirda barcha islom banklari uchun dasturul amal bo'lib xizmat qilmoqda.¹²⁶

O'zbekistonda ham takofulni joriy etish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan "Apex Insurance" sug'urta kompaniyasi 2020-yilda "Center of Islamic Banking and Economics" xalqaro tashkilotining "Umumiy takoful" va "Oilaviy takoful" shar'iy sertifikatlarini olishga sazovor bo'ldi.

¹²⁴ Беккин Р.И. Исламское страхование (такафул). Казанский Университет. 2012. С. 13-14.

¹²⁵ Байдаулет Е.А. Исламий молия асослари. "Ўзбекистон", Т.: 2019. -79 б.

¹²⁶ Исламское страхование (такафул). Шариатский стандарт № 26. "Исламская книга", М.: 2010

Mamlakatimizda Islomiy moliyalashtirish ishlari 2004-yilda boshlangan bo'lib, bu O'zbekistonning Islom taraqqiyot banki (ITB) a'ziligiga qo'shilishi bilan bog'liq. Bu yurtimiz iqtisodiyoti uchun yangi yo'nalish bo'lib, unga bugun biznes tarafdin ham, aholi tomonidan ham ehtiyoj mavjud.

Mamlakatimiz aholisining 90 foizidan yuqori qismi Islom diniga e'tiqod qilishi va e'tiqodi tufayli 15-20 foizga yaqin aholi an'anaviy kreditlash tizimidan foydalanmayotganini hisobga olsak, muqobil kreditlash tizimi orqali mazkur qatlam to'liq qamrab olinishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga hamda xalqimizga qilgan 2020-yil dekabr oyidagi Murojaatnomasida "endigi vazifa –chuqur tarkibiy islohotlar orqali uzoq muddatli barqaror o'sishning poydevorini yaratishdan iborat" ekani bejiz ta'kidlanmadi.

Iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish uchun moliyaviy-investitsion resurslarni jalb etish usullaridan biri islomiy banking vositalari, islomiy kapital bozori hamda islomiy nobank va mikromoliyaviy muassasalardan foydalanish hisoblanadi. Shuningdek, moliyaviy xizmatlar, kapital va sug'urta bozorlarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi¹²⁷.

Quvonarlisi shundaki, 2021-yil O'zbekiston hukumatining islomiy moliyalashtirish uchun mustahkam poydevor yaratish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida real qadamlar qo'yishdagi jiddiyligini namoyon etdi. 2022-yil qonunchilikni rivojlantirish va islom bank ishi, mikromoliya, lizing, takaful va sukuk uchun qulay muhit yaratish yili bo'lishi kutilmoqda

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, islomiy sug'urta – takofulning tarixiy ilizlari uzoq davrlarga, ya'ni Islom dini paydo bo'lgan VII asrga borib taqaladi. Uning shar'an joizligiga islom manbalarida dalillar mavjud. Bugungi kunda Takoful jahon islomiy moliyaviy muassasalari tomonidan keng qo'llanilmoqda, shuningdek, u dunyo musulmonlari hayot faoliyatini turli xatarlardan himoya qilishda muhim rol o'ynamoqda. Aholisining 93 foizini musulmonlar tashkil qiladigan O'zbekistonda islomiy sug'urta - takofulni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o'z navbatida, aholining bo'sh mabla g'laridan samarali foydalanish imkonini beradi, qolaversa, ularni har turli balo-qazo va ofatlardan himoya qiladi. Pirovardida esa, mamlakatimiz moliya bozori jozibadorligini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh., 2022-yil 10-iyuldagi sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari bo'yicha yi g'ilish. <https://www.prezident.uz/>
2. Беккин Р.И. Исламское страхование (такафул). Казанский Университет. 2012.
3. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Кифоя. III ж. "ШАРҚ", Т.: 2011.
4. Байдаулет Е.А. Ислоний молия асослари. "Ўзбекистон", Т.: 2019.

¹²⁷ Mirziyoyev Sh.M, 2022-yil 10-iyuldagi sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari bo'yicha yi g'ilish. <https://www.prezident.uz/>

5. Абдуллаев Р.В., Дусанов С.М. Ислом иқтисодиётида молиявий муносабатлар. Т.:“Тошкент ислом университети”, 2007.
6. Afzal ur-Rahman. Banking and Insurance (Economic Doctrines of Islam). London, 1979. Vol. IV. P. 32.
7. Тримингэм Дж. Суфийские ордены в исламе. М., 2002. С. 312.
8. Исламское страхование (такафул). Шариатский стандарт № 26. “Исламская книга”, М.: 2010.
9. <https://www.statista.com/>